



# E CONF SERIES



**Scientific Conference on Multidisciplinary Studies**

**Hosted online from Bursa, Turkey**

Website: econfseries.com

11<sup>th</sup> July, 2025

## O'TKIR HOSHIMOV HIKOYALARIDA QO'LLANGAN ANTROPONIMLAR TAHLILI

M.Mustafaqulova,

Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universiteti filologiya fakulteti,  
1-bosqich talabasi

### **ANNOTATSIYA**

Onomastik birliklarning turlaridan biri bo‘lgan antroponimlar badiiy asarda muhim o‘ringa ega bo‘lib, ular orqali ko‘zlangan maqsad asar g‘oyasi tushunilishiga katta hissa qo‘suvchi omillardan biri hisoblanadi. Quyida O’tkir Hoshimovning ayrim hikoyalari asosida fikrlarimizni dalillashga harakat qilamiz.

**Kalit so‘zlar:** onomastika, onomastik birliklar, antroponimlar, ism, laqab, familiya, taxalluslar.

### **ANNOTATION**

Anthroponyms, one of the types of onomastic units, play an important role in a work of art, and the intended purpose through them is one of the factors that greatly contributes to the understanding of the idea of the work. Below we will try to substantiate our ideas based on some stories by Otkir Hoshimov.

**Keywords:** onomastics, onomastic units, anthroponyms, name, nickname, surname, pseudonyms.

Dunyoni anglashga qilingan harakatlar natijasida insonlarda bir turdag'i narsalarni bir-biridan ajratish maqsadida turli nomlar bilan atashga ehtiyoj paydo bo‘ldi. Dastlab sodda bo‘lgan nomlar vaqtlar o‘tishi bilan takomillashib, boyib bormoqda. Bu esa, o‘z navbatida, ularni o‘rganish va tadbiq etishga doir ehtiyojlarni keltirib chiqardi. Tilshunoslikda onomastika fani ana shunday vazifani o‘z zimmasiga oladi.



# E CONF SERIES



**Scientific Conference on Multidisciplinary Studies**

**Hosted online from Bursa, Turkey**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

11<sup>th</sup> July, 2025

Onomastika – yunoncha so‘z bo‘lib, “nom qo‘yish san’ati” degan ma’noni bildiradi<sup>1</sup>. Umuman olganda, onomastika atoqli otlarni o‘rganuvchi soha. Atoqli otlar o‘z navbatida qay turdag‘i otlarni nomlashiga qarab, antroponimlar, toponimlar, gedronimlar, teonimlar, zoonimlar kabi turlarga ajratiladi.

Odam borki, u boshqalardan nafaqat tashqi ko‘rinishi, xarakteri bilan, balki nom jihatdan ham farq qiladi va ajralib turadi. Har bir inson farzandiga ism qo‘yishda uni o‘zi uchun katta mas’uliyat sifatida qabul qilgan holda, o‘z orzu-umidlari, urfodatlari va niyatlaridan kelib chiqib ism qo‘yadi. Kishi ismi, familiyasi, ota ismi, laqabi va taxalluslari antroponimlar deb yuritiladi. Antroponim – asli grekcha so‘z bo‘lib, antro – odam + onim, ya’ni kishilarga berilgan atoqli otlardir<sup>2</sup>.

Badiiy adabiyotni ham antroponimlarsiz tasavvur etish qiyin. Yozuvchi o‘z qahramonlari orqali yetkazmoqchi bo‘lgan g‘oya va fikrlarini, ularni yaratishdan ko‘zlagan maqsadlarining ayrimlarini aynan ularning ismlari orqali oolib berishga harakat qiladi. A.P.Chexov shunday degan edi: ”Faqat asar qahramonlarining nutqlaridagina emas, balki ularning ismlari va faoliyatlarida ham chuqur soddalik va hayotiylik bo‘lishi kerak”<sup>3</sup>.

Quyida O‘tkir Hoshimovning “Urushning so‘nggi qurboni”, “Dehqonning bir kuni”, “Dehqonning bir tuni”, “Hayajonlanmang”, “Xayollarga bo‘laman tutqun”, “O‘zbeklar” va “Shaharlik kuyov” hikoyalari orqali adib asarlaridagi antroponimlar haqida fikr yuritamiz va ularni ma’noviy va tuzilishi jihatdan tahlil qilamiz.

Yuqorida nomi keltirilgan hikoyalarda antroponimlarning deyarli barcha turlarini uchratishimiz mumkin. Masalan:

**1. Ismlar:** “Urushning so‘nggi qurboni” hikoyasida: Shoikrom, Shone’mat, Umri xola, Xadicha; “Dehqonning bir kuni” hikoyasida: Muyassar, Alijon, Shoqosim, E’tibor; “Dehqonning bir tuni” hikoyasida: Doniyor, Valijon, Halimaxon, Salima, Tursunoy xola, Shotursun; “Xayollarga bo‘laman tutqun” hikoyasida: Erkin, Xolida, Javdod; “O‘zbeklar” hikoyasida: Muattar xola, Bahri

<sup>1</sup> Kilichev B. Onomastika. O‘quv qo‘llanma. – Buxoro, 2023. – B. 5.

<sup>2</sup> Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – Б. 10.

<sup>3</sup> Kilichev B. Onomastika. O‘quv qo‘llanma. – Buxoro, 2023. – B. 121.



# E CONF SERIES



## Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11<sup>th</sup> July, 2025

xola, Iskandar, Xolmat, Gulandom, Shavkat kabi; “**Shaharlik kuyov**” hikoyasida esa Tursunoy va Adolat kabi ismlarni uchratishimiz mumkin.

*Shoikrom* o’shanda onasining yoz bo‘yi kelini bilan yuzko‘rmas bo‘lib yurganini esladi-da, yana o‘sha gap xayoliga keldi. “*Xadicha* anoyi emas, qurimsoq...” (“Shaharlik kuyov”, 10-bet).

- *Salimangiz...* – *Muyassar* narigi xonada yotgan uch qizning qaysi biri tushida alahsiragani-yu, qaysi biri ingraganini aniq biladi (“Shaharlik kuyov”, 29-bet).

**2.Ota ismlari:** “**O‘zbeklar**” hikoyasida: Isakandar Vahobovich, Zarif Hodiyevich kabilar.

Nimaga Iskandar uni tanimaydi? Umuman, o‘zidan boshqa – *Iskandar Vahobovichdan* boshqa kimni taniydi? (“Shaharlik kuyov”, 77-bet).

Shunda kafedra mudiri, Fanlar akademiyasining muhbir a’zosi, professor Zarif Hodiyevich uni himoya qildi (“Shaharlik kuyov”, 71-bet).

**3.Laqablar:** 1)**kasbiga ko‘ra:** “**Urushning so‘nggi qurbanii**”: Komil tabib, Ilhom samovarchi; “**Dehqonning bir kuni**”: Qoravoy taqachi; “**Butilka hoji**”: Kosagul; “**O‘zbeklar**” hikoyasida esa “*Otinoyi*” kabi; 2)**kishining belgisiga ko‘ra:** “**O‘zbeklar**” hikoyasida “Inoy garang”; 3)**xarakteriga ko‘ra:** “**O‘zbeklar**” hikoyasida “geroy” – Ahmad; 4)**darajasiga ko‘ra:** “**O‘zbeklar**” hikoyasida “kelinposhsha”; “**Butilka hoji**” hikoyasida “Hoji aka” kabilar.

Bir kuni sigiri paxtazorga tushib ketgani uchun *Qoravoy taqachining* to‘qqiz yashar o‘g‘lini o‘lar holatda do‘pposlagan (“Shaharlik kuyov”, 21-bet).

To‘g‘ri, u otinlikdan ko‘ra ko‘proq xodimlik qilgan. Ammo uni xodim xola emas, *Otinoyi* deyishadi (“Shaharlik kuyov”, 59-bet).

Davradagilardan biri safar taassurotlarini so‘ragan edi, *Hoji aka* yayrab ketdi (“Shaharlik kuyov”, 39-bet).

Nima , meniyam *Ilhom samovarchining* xotiniday so‘yib ketishsinmidi? (“Shaharlik kuyov”, 9-bet).

O‘zbek tilida antroponimlar o‘z tuzilishiga ko‘ra ikkiga bo‘linadi: antropokomponentli va antroformantli. Antropokomponentli qo‘shma ismlarda har ikkala komponent ham so‘z shaklida bo‘ladi, antropoformantli ismlar mustaqil so‘z va qo‘srimchadan iborat bo‘ladi. Hikoyalarda keltirilgan antroponimlar ham shunday tuzilishga ega. Masalan, antrokomponentli: Sho(h)+ikrom,



# E CONF SERIES



**Scientific Conference on Multidisciplinary Studies**

**Hosted online from Bursa, Turkey**

Website: econfseries.com

11<sup>th</sup> July, 2025

Sho(h)+ne'mat, Sho(h)+qosim, Sho(h)+tursun, "Kelin+poshsha" kabilar; antroformatilarga: Alijon, Erkin, Tursunoy, Qoravoy, Valijon, Halimaxon, Xolida, Xolmat, Adolat kabilarni keltirishimiz mumkin.

Otinoyi uchun u "Kelinposhsha". Yaxshi juvon, bechora ("Shaharlik kuyov, 61-bet).

"Erkin aka, qarang-qarang, ro'molim oqib ketyapti", desam ham indamay turaverdingiz ("Shaharlik kuyov", 54-bet).

Nihoyat, *Xolida* qizil sumkachasidan shoyi ro'molcha olib yuzlarini arta-arta yonimga kelib o'tirdi ("Shaharlik kuyov", 54-bet).

Iskandar Vahobovich beixtiyor qo'shnilarini bir-bir eslab ko'rdi, *Xolmat* degan qo'shnisi yo'q. Jinni bo'lganmi bu odamlar?! ("Shaharlik kuyov", 63-bet).

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, asar qahramoni to'laqonli hayotiy chiqishi uchun nafaqat uning portreti, nutqi, balki ismi ham muhimdir. Shunday ekan nega adib o'z qahramonlariga aynan bu ismlarni qo'ydi, degan savol tug'ilishi tabiiy. Nega aynan "Urushning so'nggi qurban" da tabibning ismi Komil(O'tkir Hoshimovning ayrim asarlarida, xususan, "Ikki eshik orasi" romanida ham) yoki bo'lmasa nega kasal o'g'ilning ismi Shone'mat? Quyida ismlar izohi bilan tanishib chiqamiz.

Umri – Umriniso yoki o'lmaydigan, yashovchi, barhayot<sup>4</sup>.

Shoikrom – Sho(h) va Ikrom – izzat, ehtirom, obro', martaba yoki sovg'a, tuhfa<sup>5</sup>.

Shone'mat – Sho(h) va Ne'mat – nasibali, rizq-u ro'zli yoki baxtli saodatli<sup>6</sup>.

Komil – yetuk, barkamol, kam-ko'stsiz, nuqson siz, donishmand<sup>7</sup>.

Xadicha – chala tug'ilgan<sup>8</sup>.

Hikoyada kasal o'g'li uchun katta o'g'linikiga chiqqan Umri xola qulupnay egatlari dagi simga tegib vafot etgan qahramon. Shoikrom esa to'qimachilik kombinatida montyor, uni urushdan olib qolishgan. Shone'mat o'limini kutib yashayotgan, sil kasalligiga chalingan obraz, tabib har kuni echki sutini ichsa, tuzalib ketishini aytgan, shu sababli Umri xola qulupnayni echki sutiga al mashmoqchi edi. Qahramonlarning ismlari bilan tanishib chiqdik. Ammo nega

<sup>4</sup> Бегматов Э. Ўзбек исмлари маъноси. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – Б. 447.

<sup>5</sup> Бегматов Э. Ўзбек исмлари маъноси. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – Б. 498.

<sup>6</sup> Бегматов Э. Ўзбек исмлари маъноси. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – Б. 501.

<sup>7</sup> Бегматов Э. Ўзбек исмлари маъноси. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – Б. 188.

<sup>8</sup> Бегматов Э. Ўзбек исмлари маъноси. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – Б. 566.



# E CONF SERIES



**Scientific Conference on Multidisciplinary Studies**

**Hosted online from Bursa, Turkey**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

11<sup>th</sup> July, 2025

Umriniso, yashovchi (Umri xola) deya ta'riflangan obraz asar voqelari davomida vafot etdi? Nega rizq-u ro'zli (Shone'mat) farzand uchun bir kosa sut topilmadi? Barchasi urush tufayli. Urushning xalq boshiga solgan og'ir kunlari tufayli, og'ir zamon tufayli. Shoikrom ta'biri bilan aytganda, suv qalqisa, loyqasi yuqoriga chiqqanday, zamon qalqiganidan buyon yomon ko'paygan urush davri tufayli. Yozuvchi ham aynan urushning yomon oqibatlarini ohib berish uchun obrazlar ismlarini asar voqelariga zidlantirib tanlagandir ehtimol.

Xulosa qilib aytganda, O'tkir Hoshimov hikoyalarida qo'llangan antroponomilar zamon va makon muhitiga mos tarzda tanlangan bo'lib, ular orqali adib xalq hayotini ohib bera olgan. Jumladan, "O'zbeklar" hikoyasida tilga olingan Gulya (Gulandom), Dilya (kotiba qiz) yoki "Hayajonlanmang" hikoyasida keltirilgan Florochka obrazlari bilan shu ismli qizlarning shahar aholisi ekanligini nafaqat nutqi va tashqi ko'rinishi bilan, balki ismlari orqali ham o'quvchiga tanishtira olgan.

## **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Kilichev B. Onomastika. O'quv qo'llanma. – Buxoro, 2023. – 180b.
2. Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – 264b.
3. Бегматов Э. Ўзбек тили исмлари маъноси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – 608б.
4. O'tkir Hoshimov. Shaharlik kuyov. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2019. – 132b.